

Dushanbe xalqaro konferensiyasida ilmiy yo'nalishda bir qator samarali kelishuvlarga erishildi

Hozirgina Dushanbe shahrida bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiyaning sho'ba yig'ilishlari nihoyasiga yetdi.

Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi ilmiy hamkorlikka bag'ishlangan davra suhbatida dastlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti va Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Geologiya, seysmik barqaror qurilish va seysmologiya instituti rahbarlari, mutaxassislari tegishli sohalaridagi bugungi kunning dolzarb muammolarini, bu boradagi o'zaro hamkorlik istiqbolini muhokama etishdi.

Shuningdek, yig'ilish davomida ikki davlat oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi aloqalarni yana-da kuchaytirish ilmiy va innovatsion salohiyatni amalga oshirishning muhim omili, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning joriy holati, istiqboli, eksperimental biologiya, yadro texnologiyalarining tibbiyot, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida qo'llanishi, paxtachilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalaridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar bo'yicha hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Muloqot davomida COVID-19 pandemiyasi sharoitida global xavfsizlik, muzliklar va suv resurslarini global va mintaqaviy miqyosda o'rganish bo'yicha hamkorlik istiqboli, biologik xilma-xillik strategiyasi kabi mavzular atrofida munozara, muhosaba kechdi.

Tojikiston MFA Botanika, fiziologiya va genetika instituti direktori Bobozoda Baqoxoja O'zbekiston FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti bilan DS va PG fan doktorlari tayyorlash va Genetika mutaxassisligidan dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzolashni taklif etdi. Zero, bugungi kunda Tojikistonda ayni yo'nalishda mutaxassislar yetishmovchiligi yaqqol sezilmoqda.

Tojikistonning S.I.Umarov nomidagi Fizika-texnika instituti va O'zbekiston FA Yadro fizikasi instituti o'rtasida ilmiy hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. Mazkur kelishuv asosida tomonlar yadro fizikasi, nazariy fizika, yarim o'tkazgichlar fizikasi va boshqa qator yo'nalishlar bo'yicha birgalikda tadqiqot olib borishadi.

Konferensiyaning so'nggi sho'ba yig'ilishi madaniy aloqalarga bag'ishlandi. Dastlab ekspertlarning o'zbek va tojik xalqlari tarixi, madaniyatidagi umumiy jihatlar, an'analarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, ma'naviy qadriyatlarimiz xalq diplomatiyasini yana-da rivojlantirish omili ekanligi xususidagi ma'ruzalari tinglandi. Munozara qismida mumtoz adabiyot namunalariga oid qo'lyozmalar bo'yicha tadqiqotlar, maqom san'atini rivojlantirish, madaniy aloqalarimizni yana-da kuchaytirish yuzasidan fikrlar bildirildi, taklif, tavsiyalar o'rta tashlandi.

So'nggi sho'ba yig'ilishi yakunida Alisher Navoiyning Tojikiston MFA Yozma meros markazi sharq qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan qo'lyozmalariga doir muhokamalar bo'lib o'tdi. Markazning yetakchi ilmiy xodimi Saidhoja Alizoda biz uchun juda qadrlig bo'lgan mazkur nodir qo'lyozmalar haqida mutaxassislarimizga batafsil ma'lumot berdi.

Manba